



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

# GUMANITAR FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY ILMIY YO'NALISHLARI

2-AN'ANAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
ONLAYN KONFERENSIYASI



zoom | 10:00

2022-  
yil

19-  
Aprel

### III SHO‘BA:

## GUMANITAR FANLAR DOIRASIDA OLIB BORILAYOTGAN ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR

### KOMPLAENS VA UNGA ALOQADOR FENOMENLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qosimova Nargiza Dilmuratovna.....229

### ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОГНИТОЛОГИИ КАК МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ НАУКИ

Иззетова Эмине Мустафаевна, Ли Екатерина Владимировна.....231

### YANGI O‘ZBEKISTON – YANGICHA DUNYOQARASHDA TAFAKKUR IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TARAQQIYOTNING MAHSULI SIFATIDA

Ruhiyeva Xalida Aribjanovna, Ibodullayeva Iroda Nurullo qizi, Muxtorova  
Madina Azamat qizi.....235

### РОЛЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В РАЗВИТИИ ГУМАНИТАРНОГО ЗНАНИ

Ахмедова Санам Джалаловна.....240

### PSIXOLOGNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PORTRETINI TAHLIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mirashirova Nargiza Anvarovna.....244

### ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDA EMOTSIYANING O‘Z-O‘ZIGA VAHO BERISHGA TA‘SIRI

Abdurahmanova Zuhra Erkinovna, Xaydarova Surayyo Rustamovna.....247

### РОЛЬ ПОЛА В ПРЕДПОЧТЕНИИ СТИЛЯ ПЕРЕГОВОРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ЛИЦ, НАХОДЯЩИЕСЯ НА РАЗНЫХ ЭТАПАХ ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИИ

Хабиев Темур Рафаэлевич.....252

### ПРОБЛЕМА ДЕАНТРОПОЛОГИЗАЦИИ И СТАНОВЛЕНИЯ ВИРТУАЛЬНОГО ПОСТЧЕЛОВЕКА

Межевникова Ольга Петровна.....255

### DIQQAT YETISHMASLIGI SINDROMLI VA GIPERAKTIV BOLALAR PSIXOKORREKSIYASI – MAKTABGA TAYYORGARLIKNING MUHIM OMILI

Askarova Nargiza Abdivaliyevna.....258

### ЧАСТНЫЙ СЕКТОР СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ КАК ПЛОЩАДКА ПРОХОЖДЕНИЯ ПРАКТИКИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА СОЦИАЛЬНЫХ НАУК

Асамова Умида Абдурашитовна.....261

Подводя итог, можно утверждать, что в бытии виртуального пространства происходит формирование нового постчеловека, сущностные качества которого пока еще находятся в стадии становления.

### Список использованной литературы

1. Roco M.C., Bainbridge W.S. (Eds.). *Converging Technologies for Improving Human Performance: Nanotechnology, Biotechnology, Information Technology and Cognitive Scienc*, NSF-DOC Report, June 2002, Arlington, VA, US. (also, Kluwer Academic Publishers, in press).

2. Шевченко Ю.С. Природа человека в свете конвергентных технологий: философский анализ // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики Тамбов: Грамота, 2012. № 6 (20): в 2-х ч. Ч. I. С. 208-210.

3. Varela F., Thompson E. *The Embodied Mind. Cognitive Science and Human Experience*. Cambridge (MA): Cambridge: MIT Press, 1991. 328 p.; Johnson M. *The Meaning of the Body: Aesthetics of Human Understanding*, University of Chicago Press, 2008. 307 p.

4. Бычков, В. В., Маньковская, Н. Б. Виртуальная реальность / В. В. Бычков, Н. Б. Маньковская // *Культурология. Энциклопедия*. В 2-х т. - М.: Российская политическая энциклопедия, 2007. - Т. 1. - С. 369-374.

5. Делёз Ж. *Логика смысла*. М.: Академический Проект, 2011. — 472 с.

6. Шклярник, Е. Н. Новая онтология [Текст] / Е. Н. Шклярник // *Информационная эпоха: вызовы человеку / под ред. И. Ю. Алексеевой и А. Ю. Сидорова*. - М. : РОССПЭИ, 2010. - С. 230-258.

7. Гуревич, П. С. Феномен деантропологизации человека / П. С. Гуревич // *Вопросы философии*. – 2009. No 3. – С. 19-31

## DIQQAT YETISHMASLIGI SINDROMLI VA GIPERAKTIV BOLALAR PSIXOKORREKSIYASI – MAKTABGA TAYYORGARLIKNING MUHIM OMILI

**Askarova Nargiza Abdivaliyevna**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Diqqat yetishmasligi sindromli va giperaktiv bolalar psixokorreksiyasi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, alohida kompleks yondashuvni talab etadi. Chunki, ushbu sindromning maxsus psixokorreksiyasi DESG bolalarni maktabga psixologik tayyorgarligining muhim omili hisoblanadi.

Maktabga qabul qilinadigan bola o‘z hayotining eng muhim davriga, ya’ni, maktab tomonidan qo‘yiladigan turli – tuman talablarni bajarishga, ta’lim olishga ham jismoniy, ham psixologik jihatdan tayyor bo‘lishi lozim. Negaki, jismonan

sog‘lom bola maktabga tavsiya etilar ekan, u aqliy saviyasi bilan his-tuyg‘ulari va ijtimoiy onglilik darajasi bilan ma‘lum talablarga javob berishi kerak. Rivojlanishning individual o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan o‘quvchilarni ta‘lim va tarbiyasi muammosi pedagogik psixologiyada eng muhimlaridan biri sanaladi. Diqqat yetishmovchiligi sindromli va giperaktiv bolalar me‘yordagi taraqqiyot kategoriyasiga taalluqli va umumta‘lim maktabda o‘qitilishi mumkin.

Diqqat yetishmasligi sindromli va giperaktiv bolalarning ota-onalarni bolaga nisbatan haddan ziyod talabchanligi, tarbiyadagi tizimsizlik, mehrning, iliq emotsional munosabatning yo‘qligi unda emotsional, xulq-atvor buzilishlarini keltirib chiqarib, shaxslararo munosabatlarda turli nizolarga olib keladi. Oqibatda esa, sindrom tizimidagi mavjud buzilishlarni yanada chuqurroq rivojlanishiga olib keladi. Ushbu holat esa, diqqat yetishmasligi sindromi va giperaktiv bolalar bilan psixokorreksion va rivojlantiruvchi ishlarni olib borishda, alohida yondashuvni talab qiladi. Shunday ekan, psixokorreksion va rivojlantiruvchi dasturning asosiy maqsadi-DESG bolalarga o‘z emotsiyalarini boshqarishga o‘rgatish, salbiy emotsiyalarni korreksiyalash, diqqatni barqarorlashtirish va bilish jarayonlari, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

I.P.Bryazgunov va Ye.V.Kasatikovalar DEGS korreksiyasida yetakchi rolni xulq-atvor psixoterapiyasiga ajratadilar, u o‘z ichiga bolalar, ota-onalar va pedagoglarni o‘qitishni qamrab oladi [1]. Korreksiyaning umumiy maqsadiga qaramasdan ushbu dasturlar bog‘cha, maktab va oila sharoitida turlicha o‘ziga xosliklarga ega. Korreksiyaning oila dasturi ko‘p darajada bolaning xulq-atvori va shaxsiga taaluqli. Psixolog uchun ota-onalarga bolani, uni o‘ziga xosliklarini qabul qilishlari zaruratini anglashlariga yordam berish muhimdir. Ko‘pgina giperaktiv bola o‘sayotgan oilada psixologik mikro muhit buzilgan, ota-onalar o‘rtasida bunday bolani tarbiyalash borasida janjallar chiqib turadi. Shuning uchun ota-onalarning emotsional turg‘unligini rivojlantirishga va qo‘llab-quvvatlash va taqdirlash metodlari ustunlik qiladigan tarbiyaning yagona strategiyasi ishlab chiqilishiga urg‘u berilishi kerak. Bundan tashqari oilada bola hayotining aniq tartibga rioya qilinishi zarur.

DEGS bolalar bilan olib boriladigan psixokorreksion va rivojlantiruvchi dastur o‘z ichiga kompleksli yondoshuvni, ya‘ni psixolog – o‘qituvchi – ota – ona hamkorligini qamrab olishi zarur. Diqqat yetishmasligi sindromi va giperaktivlik korreksiyasi dasturi o‘z ichiga uning asosiy belgilari (giperaktivlik, impulsivlik, diqqatning buzilishi)ni va ikkilamchi belgilari bilan ham ishlashni o‘z ichiga olishi kerak. Xususan, ularga koordinatsiyaning buzilishi, shaxslararo muloqot sohasidagi buzilishlarni, xulq-atvorning buzilishi, emotsional soha buzilishlarini kiritishni shart bo‘ladi [2].

DEGS bolalarning jismoniy rehabilitatsiyasi tana sezgilarini rivojlantirishga, harakat koordinatsiyasi va ularni muvofiqlashtirishni ishlab chiqishga, sklet va nafas muskullarini ixtiyoriy bo‘shashtirish bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu boradagi qo‘zg‘alish va giperaktivlikni pasaytiradigan katta jismoniy ish (vazifa) haqidagi fikr noto‘g‘ridir. Bu bolalarning

asab tizimi shunday tuzilganki, ham emotsional, ham jismoniy ortiqcha zo‘riqish, charchoq belgisi bo‘lgan maqsadsiz faollikni yanada rivojlanishiga imkon beradi. Shuning uchun DEGS bolalarga aerobika ko‘rinishidagi jismoniy mashqlar tavsiya etiladi. Ular yurak-qon tomirlarini va nafas tizimini faoliyatini yaxshilaydi, chidamlilikni oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari bu bolalar kuchli ifodalangan emotsional tarkibli o‘yinlarni o‘ynamasliklari kerak. Sportning suzish, chang‘ida uchish turlari foydalidir.

O‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalariga o‘rgatish – bu giperaktiv bolalarga qaratilgan korreksion ishning eng murakkab yo‘nalishi. Chunki ularga boshqa bolalarga nisbatan barcha narsalar qo‘zg‘atuvchi ta‘sir etadi. Shuning uchun u bir vaqtning o‘zida bir nechta ishni bajarishga harakat qiladi. Oqibat hech qaysisi oxiriga yetmaydi yoki yuzaki bajariladi. Ular doimo nimanidir tushirib yuboradilar, yoki biror narsaga urilib ketadilar. Ularga o‘z tanasini bo‘shashtirishga o‘rgatish (relaksatsiya) ularning o‘z xulq-atvorini va xatti -harakatini nazorat qilishni o‘rganishiga yordam beradi [4].

Avvalo, bolaga tushuntirishda, bo‘shashish va dam olish jazo emasligi, aksincha rohatligini anglatishdan boshlash kerak. Chunki DEGS bolalarchalik hech kim kattalardan “Tinch yot”, “Qimirlayverma”, “Tinchlan” kabi buyruqlarni ko‘p eshitmaydi, bular esa irodaviy kuchni talab etadi. Bu bosqichda kattalarning vazifasi bolalar o‘zini xotirjam sezishlari, ichki qulaylik va qoniqish his etishlariga erishishdir.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazish qoidalari:

1. Xona tashqi shovqinlardan holi bo‘lishi kerak.
2. Mashg‘ulotlarga begonalar aralashishi mumkin emas.
3. Xona harorati o‘rta bo‘lishi kerak.
4. Bolalarni xonada bir-biriga halaqit bermaydigan tartibda joylashtirish kerak.
5. Joy qulay bo‘lishi zarur, yaxshisi bolalarni sport bo‘yrisiga joylashtirish zarur.

Sindrom tizimidagi yetishmaydigan funksiyalarni rivojlantirish diqqatning buzilgan funksiyalari, ixtiyoriylik, harakat faolligi va xulq-atvorni o‘zi nazorat qilishni kompensatsiyalashni o‘ziga maqsad qilib oladi. Masalan, diqqatning barqarorligini, uni ixtiyoriy ko‘chirish ko‘nikmasini rivojlantirishdan boshlansa ijobiy samara olingach boshqa xususiyatni rivojlantirishga o‘tilsa bo‘ladi. So‘ngra parallel rivojlantirishda bolaning ikkita funksiyasini mashqlantirish mumkin, masalan, diqqatni to‘plashni va o‘z xulq-atvorini irodaviy boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin [3].

Demak, DEGS bolalarning korreksiyasi va rivojlantiruvchi dasturi ota-onalar va pedagoglarni ham o‘z ichiga qamrab olsa tezroq samaradorlikka erishish mumkin. O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil qilishda o‘qituvchilar DEGS bolalarga alohida e‘tibor qaratishlari zarur bo‘ladi. Shuningdek, dars davomida bolaning diqqatini chalg‘ituvchi omillarni kamaytirish va bolani doska qarshisidagi qatorga o‘qituvchiga yaqinroq partaga o‘tkazish, darsda berilayotgan topshiriqlarni doskaga yozib qo‘yish, ma‘lum vaqt oralig‘ida faqat bitta topshiriq berish, katta

topshiriqlarni qismlarga ajratib berish va har bir qismini bajarilishini nazorat qilish, o‘quv mashg‘ulotlari orasida jismoniy mehnat, sport mashg‘ulotlari uchun vaqt ajratish v.h.z.

Diqqat yetishmasligi sindromli va giperaktiv bolaning ota-onalar bilan olib boriladigan ishning birinchi va muhim yutug‘i bolaning notabiiy xulq-atvorining oqibati asab tizimining buzilganligini anglatishdir. Ushbu sindromli bola bilan muloqotning emotsional fonni bir maromda ijobiy bo‘lishi kerak. Aynan shu korreksiya uchun tayanch nuqta bo‘ladi. Aks holda bolaning xulq-atvorini o‘zgartirishga, uning shaxs xususiyatlariga ta’sir etishga bo‘lgan barcha urinishlar kutilgan natija bermasligi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1.Брызгунов И.П., Касатикова Е.В. «Непоседливый ребенок или всё о гиперактивных детях». М.: изд-во Института психотерапии, 2001.

2.Abdivalieva A.N. (2022). Psychological Characteristics of Children with Attention Deficiency and Hyperactivity and their Readiness for School Training. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 295-298.

3.Askarova, N. (2021). Diqqat yetishmasligi sindromli va giperaktiv bolalarda emotsional soha korreksiyasining asosiy metodlari. Общество и инновации, 2(10/S), 548-554.

4. Аскарова Н.А. Синдром дефицита внимания и гиперактивности – как одна из проблем готовности к школе. Вестник интегративной психологии. 2019.№2.

### **ЧАСТНЫЙ СЕКТОР СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ КАК ПЛОЩАДКА ПРОХОЖДЕНИЯ ПРАКТИКИ ДЛЯ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА СОЦИАЛЬНЫХ НАУК**

**Асамова Умида Абдурашитовна**

[umida.asam@mail.ru](mailto:umida.asam@mail.ru)

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
независимый исследователь кафедры «Социология»  
факультет социальных наук

Социология которая входит в гуманитарные науки [1] имеет ответвления, такие как теоретическая социология и прикладная социология. Теории и гипотезы поставленные в теоретической социологии проверяются отчасти методами прикладной социологии. В прикладной социологии широко представлена возможность проводить исследования. Функционируют различные центры при государственных учреждениях которые изучают проблемы общества, мнение населения. В основном результаты подобных исследований идут на устранение проблем, улучшение сфер социального